



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 28-may, № 107 (9002)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI YUNISEF BILAN SERMAHSUL SHERIKLIKNI YUKSAK BAHOLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-may kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) ijrochi direktori Ketrin Rasselni qabul qildi.



BMT tizimidagi ushbu yetakchi ixtisoslashtirilgan institut bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida YUNISEF rahbari O'zbekiston yetakchisiga BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning samimiy salomini yetkazdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalariga yuqori baho berilib, bolalar huquqlarini ta'minlash va imkoniyatlarini kengaytirish sohasidagi milliy dastur qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston va YUNISEF o'rtasidagi hamkorlik keyingi yillarda yuksak darajaga chiqqani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tashkilot ko'magida mamlakatimizda bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha qonun, aholini ijtimoiy himoya qilish va bolalar onkologiyasiga qarshi kurashish sohasida strategik hujjatlar qabul qilindi. Koronavirus

pandemiyasiga qarshi kurashish va vaktsinatsiya tizimini rivojlantirishga ko'maklashildi.

Qonunchilikni takomillashtirish, bolalarni parvarish qilish va qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, ijtimoiy xizmat va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va ularning sifatini yaxshilash, milliy standartlarni ishlab chiqish, ijtimoiy sug'urtani kengaytirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish va boshqa ustuvor yo'nalishlarda qo'shma chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

2030-yilgacha mo'ljallangan yangi Mamlakat dasturini qabul qilish, shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini ilgari surish masalalari bo'yicha qator xalqaro tadbirlarni birgalikda o'tkazishga kelishib olindi.

O'z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

ITALIYA BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O'ZBEKISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Sammit davlatimiz rahbarining 2023-yil 7-9-iyun kunlari Italiyaga rasmiy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq o'tkaziladi.

Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston - Italiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada

mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Innovatsion hamkorlik va gumanitar almashinuv loyihalarini ilgari surish diqqat markazida bo'ladi.

Yakunda ikki tomonlama bitimlar to'plamini imzolash ko'zda tutilgan.

O'z.A.

O'zbekiston - Italiya:

IZCHIL RIVOJLANISHGA QARATILGAN UZOQ MUDDATLI STRATEGIK HAMKORLIK

Italiya Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari tashrif bilan O'zbekistonda bo'ladi.

Biz va jahon

Ushbu tashrif 1992-yil mart oyida boshlangan O'zbekiston - Italiya munosabatlarining zamonaviy tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishi bilan o'zgarib, Italiya elchixonasi, 1998-yilda esa Rimda O'zbekiston vakolatxonasi ochildi.

2021 va 2023-yillardan buyon Florensiya va Milanda O'zbekistonning faxriy konsulligi institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa xalqlar do'stligi va iqtisodiy diplomatiyani mustahkamlash hamda kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 8-9-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan Italiyada bo'ldi. Tashrif yakunlari bo'yicha ikki davlat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida Qo'shma deklaratsiya qabul qilindi.

O'sha yilning 9 - 11-noyabr kunlari Italiya Prezidenti Serjo Mattarella rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi.

Siyosiy muloqot faol qo'llab-quvvatlanmoqda va yuqori darajada davom ettirilmoqda. 2019-yilning dekabr va 2021-yil sentyabr oylarida O'zbekiston va Italiya tashqi ishlar vazirlari o'zaro tashrif almashishdi. 2024-yil may oyida esa Rimda bo'lib o'tgan "Italiya - Markaziy Osiyo" uchinchi vazirlar konferensiyasi doirasida uchrashuvlar o'tkazildi. Ta'kidlash joizki, Rim 2019-yilda vazirlar darajasida ushbu muloqotni o'rnatishni boshlagan birinchi Yevropa davlati edi.

Bundan tashqari, ikki davlat tashqi siyosat idoralari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik ham izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, 2011-yildan buyon Italiya parlamenti Deputatlar palatasi va Senati bilan hamkorlik qilish bo'yicha O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatda do'stlik guruhlari faoliyat yuritmoqda. 2012-yilda Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Italiya parlamenti Deputatlar palatasi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. 2023-yil aprel oyida Italiya parlamentida "Italiya - Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi tuzildi.

Senatning Xalqaro ishlar bo'yicha qo'mitasi raisi, Italiya Parlamentlararo Assambleyasining faxriy prezidenti Pyer Ferdinando Kasini boshchiligidagi delegatsiya 2025-yilning 5 - 9-aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida faol ishtirok etdi.

O'zbekiston va Italiya xalqaro tashkilotlari - BMT, YEXHT, Yevropa Ittifoqi va boshqa tuzilmalar doirasida ham izchil hamkorlik qilyapti. Italiya O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish hamda Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi yangi bitimni tuzish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, tomonlar mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan "Italiya - Markaziy Osiyo" muloqoti doirasida ham faol sheriklikni yo'lga qo'ygan.

AHOLINING ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI REJALARI MUHOKAMASI

Davlatimiz rahbariga ichimlik suvi va oqova tarmoqlarini kengaytirish borasidagi ishlar yuzasidan axborot berildi.

Aholining turmush sifati va salomatligida g'oyat muhim bo'lgan bu yo'nalish izchil kengaytirib borilmoqda. Ijtimoiy va hududiy dasturlar doirasida ko'plab inshootlar barpo etilmoqda. Hozirga kelib aholi mavzularining 81 foizi ichimlik suvi, 20 foizi oqova tizimi bilan ta'minlangan.

Bu yil 1 ming 619 kilometr ichimlik suvi, 521 kilometr oqova suv tarmoqlarini tortish, 162 ta inshootni qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Bularning natijasida 715 ming aholiga ilk bor markazlashgan ichimlik suvi yetib boradi, yana 400 ming nafari oqova xizmati bilan qamrab olindi.

Mutasaddilar shu boradagi ishlarning bajarilishi bo'yicha axborot berdi.

Xalqaro moliya institutlari ishtirokida 21 ta loyiha amalga oshirilmog'uda. Bu yil 800 million dollarlik ishlarni bajarib,

138 ta suv inshootini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Osiyo taraqqiyot banki va Germaniya taraqqiyot banki bilan loyihaoldi moliyalashtirish bo'yicha yaxshi tajriba yo'lga qo'yildi. Bunda pudratchi va loyihachi oldindan tanlangani uchun amaliy ishlar boshlanishi tezlashdi. Kelgusida barcha loyihalarda shu tartibni qo'llash maqsadga muvofiqlicha aytiladi.

Suv ta'minoti tizimini raqamlashtirish uchun Osiyo taraqqiyot bankidan 125 million dollar jalb qilingan. Bu loyiha doirasida besh yilda yirik suv inshootlari va magistral quvurlarga 4 ming 800 ta "aqli" hisoblagich va qariyb 3 mingga telemetriya tizimi o'rnatiladi.

Sohada xalqaro hamkorlik va xususiy sheriklik rivojlanib borayotganidan kelib chiqib, ushbu talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash zarurligi ta'kidlandi.

TEMIR YO'L SOHASIDAGI LOYIHALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev temir yo'llarni rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 10-oktyabrda qaroriga muvofiq bu soha tubdan isloh qilinmoqda. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tarkibiy jihatdan o'zgartirilib, nosohaviy bino, yondosh yer va ortiqcha vazifalar qisqartirildi. Natijada ilgari zarar bilan ishlagan kompaniya o'tgan yili 47 milliard so'm sof foyda bilan chiqdi. "Temiryo'lkargo" kompaniyasi tashkil etilgach yuk vagonlaridan foydalanish samaradorligi 2 karra oshdi.

Lekin hali imkoniyatlar ko'p. Taqdimotda soha infratuzilmasini rivojlantirish va daromadni oshirish vazifalari ko'rsatib o'tildi.

Xususan, tranzit yuklarini tashish quvvatidan to'liq foydalanilmayapti. Buni kelgusi yillarda 40 foizga oshirish orqali daromadni 2 karra ko'paytirish mumkin.

Masalan, ilk bor Xitoy - Turkiya yo'nalishi bo'yicha yuk poyezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi. Yurtimizga yangi poyezdlar olib kelinib, qatnovlar yildan-yilga ko'paymoqda. Shu bois temir yo'l infratuzilmasi o'tkazuvchanligini izchil oshirib borish zarurligi ta'kidlandi.

Bu masala, ayniqsa, Toshkent atrofida dolzarb. Hozir tashqi yuklarning 70 foizi "Chuqursoy" stansiyasi orqali tashilmoqda. Ba'zan bunga bir

necha kun vaqt sarflanib, ortiqcha xarajat va navbatga sabab bo'lyapti.

Shu bois yuk stansiyalarini poytaxt hududidan tashqariga chiqarish, Yangiyo'l tumani va Yangi Toshkent yaqinida yirik stansiyalar barpo etish taklif qilinmoqda. Shuningdek, poytaxtimizni aylanib o'tuvchi Ozodlik - Yangiyer temir yo'li qurilishi ko'zda tutilgan. Natijada Farg'ona vodiysi bilan boshqa viloyatlar o'rtasidagi yuk tashuvlari Toshkent shahriga kirmasdan amalga oshiriladi.

Yangi loyihalardan yana biri Samarqand - Urgut yo'lidir. Hozirda ishlar boshlanib, 7 kilometr izlar yotqizilgan. Bu yo'nalish uzunligi jami 54 kilometr bo'lib, 2 ta vokzal, "Urgut" iqtisodiy zonasida 2 ta yuk stansiyasi quriladi.

Vokzallarga kirib-chiqish tartibi, xizmatlar sifati masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Yo'lovchilar harakatiga qulaylik yaratish, turistlar uchun sharoitni yaxshilash, avtoturargohlarni kengaytirish vazifalari qayd etildi.

Mutasaddilar, shuningdek, elektro-poyezdlar olib kelish, xizmat sifatini yaxshilash rejalari bo'yicha axborot berdi.

O'z.A.

Tadbir

"BMT-AYOLLAR" TUZILMASI O'ZBEKISTONDA O'Z OFISINI OCHDI

Toshkent shahrida "BMT-ayollar" tuzilmasi ofisining O'zbekistondagi vakolatxonasi ochilishiga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Hukumat a'zolari, BMT agentliklari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor vakillari ishtirok etdi.

Ta'kidlash joizki, "BMT-ayollar" tuzilmasi ofisini Toshkentda ochish bo'yicha oliy darajadagi kelishuvga BMT Bosh kotibi o'rinbosari, "BMT-ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Bexusning O'zbekistonga 2024-yil may oyida amalga oshirgan tashrifi mobaynida erishilgan edi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva "BMT-ayollar" bilan hamkorlikning yangi bosqichini qo'llab-quvvatlashini bildirarkan, ofisning ochilishi mamlakatning gender tenglik yo'nalishidagi taraqqiyotini xalqaro miqyosda e'tirof etish ramzi sifatida muhimligini ta'kidladi.

"Shubhasiz, mazkur vakolatxonaning yurtimizda faoliyat olib borishi ikki tomonlama aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishimizda,

konstruktiv hamkorlikni yanada izchil rivojlantirib borishimizda katta rol o'ynaydi", dedi Tanzila Norboyeva.

Ofisning ochilishi O'zbekiston iqtisodiyot va moliya vazirligi hamkorligida amalga oshirilib, Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan genderyo'nalitirilgan byudjetlashtirish loyihasi bilan bog'liq tashkilotlar bilan bir vaqtda to'g'ri keldi. Ushbu loyiha yangi ofis faoliyatining birinchi keng ko'lami yo'nalishi bo'ladi.

Marosimda "BMT-ayollar" tashkilotining Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori o'rinbosari Eliza Fernandes Sayens ofisning mamlakat ayollari va qizlari uchun sheriklik, taraqqiyot hamda umid timsoli sifatidagi ahamiyatini ta'kidladi.

"Tenglikka erishish yo'li ushbu ofisning ochilishi bilan tugamaydi - u yangidan, ko'proq majburiyat, yangi umid va to'xtovsiz oldinga intilish bilan davom etadi", dedi Eliza Fernandes Sayens.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY MASALALARNING QONUNIY ASOSI VA DAXLDORLIK MAS'ULIYATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlis avvalida Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov muhim ijtimoiy-siyosiy voqealikka, jumladan, 19 - 22-may kunlari mamlakatimiz Prezidentining Vengriya va Sloveniya davlatlariga rasmiy tashrifining ahamiyati haqida to'xtaldi.

Budapesht shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida imzolangan Kengaytirilgan strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya nafaqat mavjud hamkorlikni mustahkamlashi, balki uni izchil va tizimli ravishda kengaytirishga huquqiy, siyosiy va institutsional asos bo'lib xizmat qilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbarining Turkiya davlatlar

tashkilotining norasmiy sammitida qatnashishi va ilgari surgan tashabbuslari mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, O'zbekistonni ishonchli sherik va zamonaviy loyihalar tashabbuskori sifatida namoyon etgani ta'kidlandi.

Mamlakatimiz rahbarining Sloveniyaga rasmiy tashrifi nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish,

balki Yevropa bilan aloqalarni yanada mustahkamlash yo'lida navbatdagi muhim qadam bo'lgani, ikki tomon uchun ham manfaatli muloqotlarga boy tarzda va har tomonlama samarali kechgani urg'ulandi.

Shuningdek, Spiker kuni kecha Prezidentimiz raisligida mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan muhim chora-tadbirlarga alohida to'xtaldi. Fraksiyalar va qo'mitalar endilikda sohaga oid qonunchilikni tahlil qilishi, mavjud qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirishi zarurligi aytiladi.



IQTISODIYOTNI BARQARORLASHTIRISHNING MUHIM OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-may kuni mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Bu xususda Oliy Majlis Senati a'zolari quyidagicha munosabat bildirdi.

Munosabat

Zumrad BEKATOVA, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi:

- Yig'ilishda yurtimiz ishbiarmonlari tarafidan to'qimachilik

sanoatida 500 turdan ziyod mahsulotlar ishlab chiqarilayotgani, ayrimlari nufuzli brendlarga kiyim-kechak yetkazib berayotgani, ammo ko'pchilik sifatga ishlayotgani bois buni ko'rsatolmayotgani ta'kidlandi.



YOSHLIK FASLINING OLTINGA TENG DAQIQALARI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bitiruvchilarning hayotidagi unutilmas quvonchli voqea - maktab ta'limini muvaffaqiyatli tugatib, yetuklik shahodatnomasini qabul qilib olayotgani va mustaqil hayotga qadam qo'yayotgani bilan samimiy muborakbod etgani nafaqat yoshlarga rag'bat va qanot berdi, balki ustozlar va ota-onalarga o'zgaracha ruh bag'ishladi.

Xalq ta'limi mas'ullari, o'qituvchi-ustozlar va bitiruvchilarning ota-onalari, katta hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarning jo'shqin dil so'zlarini havola etamiz.

4-sahifaga qarang.

Uchrashuv

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI – DOIMY E'TIBORDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva "BMT-ayollar" tuzilmasining O'zbekistondagi vakolatxonasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan "BMT-ayollar" tuzilmasining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy ofisi direktori o'rinbosari Eliza Fernandes Sayens bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va "BMT-ayollar" tuzilmasi o'rtasida gender tenglikni ilgari surish, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash sohasidagi hamkorlikni kengaytirishning

amaldagi natijalari va istiqbollari muhokama qilindi.

So'nggi yillarda O'zbekiston teng huquq va imkoniyatlar siyosatini amalga oshirishda sezilarli yutuqlarga erishgani, boshqaruv va parlamentda ayollar ulushi ortgani, yetakchilik salohiyatiga

ega 25 ming nafar xotin-qiz xazirasi shakllantirilgani va 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish yangi strategiyasi qabul qilingani kabi asosiy yutuqlar ta'kidlab o'tildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va institutsional hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan aloqalarni kengaytirish hamda qo'shma loyihalarni amalga oshirishga tayyor ekanini bildirdi.

SENAT KENGASHI YETTINCHI YALPI MAJLISNI CHAQIRISH TO'G'RSIDA QAROR QABUL QILDI

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Majlis

Kengash tomonidan Oliy Majlis Senatining yettinchi yalpi majlisini 2025-yil 28-may kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ta'kidlanganidek, videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o'tkaziladigan yalpi majlis kun tartibiga muvofiq soliq, tadbirkorlik, ma'muriy va jinoyat-protsessual qonunchilik sohalaridagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga oid masalalar ko'rib chiqiladi. Ushbu tashabbuslar orqali fuqarolar va tadbirkorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, sud-huquq sohasini isloh qilishga hissa qo'shish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, yalpi majlisda hayvonlarni identifikatsiyalash, ro'yxatga olish va kuzatish tizimini joriy etish bo'yicha yangi qonun ham senatorlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Mazkur hujjat mamlakatda qishloq xo'jaligi va veterinariya tizimini yanada rivojlantirishga, epizootik xavflarni bartaraf etishga qaratilgan.

Kun tartibidan O'zbekiston Respublikasi bilan Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasida fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha huquqiy

yordam ko'rsatish to'g'risidagi Bitimni ratifikatsiya qilish masalasi ham o'rin olgan.

Shu bilan birga, yalpi majlis yig'ilishi doirasida ustuvor xalqaro reytinglar va indekslarda O'zbekistonning o'rni yaxshilanishi to'g'risidagi milliy ma'ruza hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining mamlakat hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi axboroti eshittiladi.

Bundan tashqari, yalpi majlisda Senatning Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasining mahalliy Kengashlar faoliyatiga amaliy va uslubiy jihatdan ko'maklashish borasida amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi axboroti eshittildi.

Yalpi majlisda bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash, hududlardagi bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarini tor doiradagi mutaxassislar bilan, moddiy-texnik holati talabga javob bermaydigan ayrim tibbiyot muassasalarini esa zamonaviy tibbiy jihoz va uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan choralar yuzasidan Sog'liqni saqlash vazirligiga parlament so'rovi yuborish masalasi ham ko'rib chiqiladi.

"Xalq so'zi".

"BMT-AYOLLAR" TUZILMASI O'ZBEKISTONDA O'Z OFISINI OCHDI

B M T n i n g O'zbekistondagi doimiy koordinatori Sabina Maxl ofisining ochilishi mamlakatning inson salohiyatini rivojlantirish va gender tenglikka qat'iy sodiqligini tasdiqlashi, "BMT-ayollar" bilan hamkorlik esa ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishini e'tirof etdi.

Darhaqiqat, O'zbekistonda "BMT-ayollar" tuzilmasi ofisining ochilishi xotin-qizlar huquqlari va gender tenglikni ilgari surishda yangi davrni boshlab beradi. Bu tashkilotning yubiley hamda butun dunyoda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va kengaytirishga qaratilgan asosiy xalqaro hujjatlar yilida, ayniqsa, muhimdir. Joriy yilda tashkilotning 15 yilligi, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasining 30 yilligi hamda BMT Xavfsizlik Kengashining Xotin-qizlar, tinchlik va xavfsizlik masalalari bo'yicha 1325-rezolyutsiyasining 25 yilligi nishonlanadi.

"Xalq so'zi".

GLOBAL YASHIL O'SISH INSTITUTI BILAN ALOQALAR YANADA KENGAYTIRILADI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Global yashil o'sish instituti (GGGI) Assambleyasi raisi Pan Gi Mun bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida "GGGI"ning O'zbekistondagi faoliyatini kengaytirish, institutning "yashil" transformatsiya bo'yicha keng ko'lami loyihalarini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, iqlim bo'yicha Parij kelishuvi doirasidagi mamlakat majburiyatlarining bajarilishini qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Orolbo'y mintaqasidagi ekologik muammolarga xalqaro yondashuv, so'nggi yillarda ushbu hududni qayta tiklash va barqaror rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, o'rmonzorlar barpo etish hamda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Parlament ekspertizasi chuqurlashtirish va "yashil"

iqtisodiyot bo'yicha mutaxassislar tayyorlash borasidagi rejalarga urg'u berildi.

Uchrashuvda tomonlar xalqaro darajada milliy iqlim tashabbuslarini ilgari surish, normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, atrof-muhit ifloslanishi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida tajriba almashish bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

HAYOTIY MASALALARNING QONUNIY ASOSI VA DAXLDORLIK MAS'ULIYATI

Majlisda, shuningdek, mediatsiya institutini rivojlantirish, sud qarori o'z foydasiga qabul qilingan shaxslarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, davlat mulkini xususiy lashtirish sohasini takomillashtirish, fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlarini kuchaytirish, migratsiya sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, sohaga xususiy sektorni keng jalb etish, muvofiqlikni baholash organlari mas'uliyatini oshirish hamda tadbirkorlarga yengillik berishga doir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Mediatsiya institutiga oid qonun loyihasi mas'ul qo'mitaga qaytarildi

Majlisda nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi.

Ta'kidlab o'tilganidek, mediatsiya – kelib chiqqan nizoga taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida yechim topish usuli bo'lib, nizoni sudgacha va sud jarayonida hal etishga qaratilgan institut hisoblanadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashda, ular muammolarining yechimi uchun nizolarni sudgacha hal qilishning zamonaviy yo'nalishlarini keng joriy etish, nizolashayotgan taraflarning o'zaro kelishuviga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur qonun loyihasida mediatsiya tartib-taomillarini qo'llash uchun rag'batlantiruvchi normalar, mediatorlarga oid talablar va mediativ kelishuvlarni ijro qilish qoidalari nizolarni muqobil hal etish mexanizmlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Loyihaning qabul qilinishi fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi nizolarni samarali va tezkor ravishda hal etishga, mediatsiya tartib-taomillarining hamma joyda qo'llanilishini rag'batlantirish orqali sudlardagi yuklamani maqbulashtirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi. "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Shuhrat Yakubov loyihadagi ayrim masalalarga, xususan, mediativ kelishuv ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda sudni jiro varaqasi asosida majburiy ijro etish mexanizmi joriy qilish nazarda tutilganiga e'tibor qaratib, bunda sudlarga, ya'ni mediativ kelishuv ixtiyoriy tartibda ijro etilmaganda ijro varaqasini majburiy ijro qilish bo'yicha vakolatni sudlarga emas, balki notariyuslarga berish taklifini ilgari surdi.

O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Saydullo Azimov kuni kecha fraksiya yig'ilishida qonun loyihasi yuzasidan qizg'in tortishuvlar bo'lganini va deputatlarning ayrim takliflari inobatga olinganini e'tirof etgan holda ba'zi savollarga yetarlicha javob bo'lmaganini qayd etdi. Deputat Oila kodeksining 76-moddasi, ya'ni boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishga oid normaga kiritilayotgan o'zgartirish to'g'risida to'xtaldi. Mas'ul qo'mita tomonidan kiritilayotgan tahrirda, ya'ni bu boradagi nizolarni sudga murojaat qilingunga qadar mediatsiya tartib-taomilini qo'llash orqali hal etilishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi belgilanayotganini,

lekin bu nizolar mediatsiya yo'li bilan hal qilinishi haqida tegishli norma yo'qligini aytib, bu kamchiliklar to'ldirilishi kerakligini ta'kidlab. Yana bir masala – bu davlat tomonidan qanday qo'llab-quvvatlanadi degan savol o'rtaga tashlandi. Ushbu normada Vazirlar Mahkamasi tomonidan bunday nizolar bo'yicha mediatsiya tartib-taomilini mediator tomonidan bepul amalga oshirish tartibi belgilanishi nazarda tutilayotganiga e'tibor qaratib, buning huquqiy asosi bormi, deya qonun tashabbuskorlariga yuzlandi.

Ular bu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Javobdan yetarlicha qanoatlanmagan deputatlar qonun loyihasi yuzasidan ayrim e'tirozlarini bildirdi. Undagi ba'zi moddalarni qayta ishlash va maromiga yetkazish bo'yicha takliflar ilgari surildi. Uzoq davom etgan muhokama va savol-javoblardan so'ng qonun loyihasini maromiga yetkazish maqsadida u mas'ul qo'mitaga qaytarildi.

Kafolat mablag'larini kiritish instituti joriy etilmoqda

Deputatlar sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimiga kafolat mablag'larini kiritish institutini joriy qilishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Mamlakatimizda sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirish sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, foydasiga sud qarori qabul qilingan shaxslarning qonuniy manfaatlarini hamda sud qarorlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash



maqsadida sud qarorlarini ijro etish tizimiga da'voni ta'minlash institutini joriy qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Qonun loyihasi bilan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunga mulkiy xarakterdagi sud hujjati bo'yicha majburiyatlarining bajarilishini majburiy ijro organi depozit hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan ta'minlash, ya'ni jiro bo'yicha kafolat mablag'larini kiritish orqali amalga oshirishga oid normalar kiritilmoqda.

Muhokamada mazkur loyiha bilan sud ijrosiga yangi institut kirib kelayotgani, sohalaridagi nizolarni hal etish ijro ishini liberalashtirishda muhim ekanligi ta'kidlandi. Qonun loyihasining qabul qilinishi foydasiga sud qarori chiqarilgan shaxslarning qonuniy manfaatlarini



hamda sud qarorlarining so'zsiz ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Davlat mulkini xususiy lashtirish takomillashtiriladi

"Davlat mulkini xususiy lashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Mamlakatimizda davlat mulkini

Ushbu hujjat bilan 13 ta qonun hamda Yer va Soliq kodekslariga davlat mulkini xususiy lashtirish, ijaraga berishni soddalashtirish maqsadida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

Ish beruvchi va xodimlarga qo'shimcha qulayliklar

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash va uning davomiyligini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Mamlakatimizda fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ish beruvchilar va xodimlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan Mehnat kodeksiga ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash va uning davomiyligini soddalashtirishga doir o'zgartirishlar kiritilmoqda. Ya'ni ish vaqtidan tashqari ishning bir kunda birinchi ikki soati uchun kamida bir yarim, ikki soatdan ortiq qismi uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanishi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlashga, tashkilotlarda ish unumdorligini oshirish va xodimlarning daromadlari ko'payishiga xizmat qiladi. Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Xususiy bandlik agentliklariga bir qator huquqlar berilmoqda

Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasining muhokamasi ham qizg'in kechdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida migratsiya sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi, ushbu sohada respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Jumladan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi

huzuridagi Tashqi mehnat migratsiya agentligi tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligi tashkil etildi. Shuningdek, fuqarolarni xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun tashkiliy tarzda yuborish sohasida xususiy sektorning ishtiroki kengaytirildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash, litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish borasida vakolatli organ etib belgilanmoqda. Shuningdek, Migratsiya agentligiga xususiy bandlik agentliklari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy ta'sir choralari qo'llash vakolati berilmoqda.

Xususiy bandlik agentliklariga xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga o'qitish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish hamda ushbu jarayonga hamkor xorijiy ish beruvchilarni jalb qilish huquqini berish nazarda tutilmoqda. Xususiy bandlik agentliklari tomonidan litsenziya olish uchun xazira qilinishi lozim bo'lgan mablag'lar miqdorini kamaytirish taklif etilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlar uchun yengillik

Muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, muvofiqlikni baholash jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohada iste'molchilarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan talablar kuchaytirildi. Lekin muvofiqlikni baholovchi organlar tomonidan qilinayotgan quddabuzarliklarning ortib borayotgani muvofiqlikni baholash qoidalarini buzganlik uchun huquqiy jihatdan ta'sir choralari

kuchaytirish zarurati yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, texnik reglamentlarning talablariga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan tadbirkorlik subyektlariga yengillik berish orqali sifatsiz mahsulotlarni chaqirib olish taomillarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Ushbu qonun loyihasi bilan Fuqarolik kodeksi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarga muvofiqlikni baholash organlari mas'uliyatini oshirish hamda tadbirkorlik subyektlarini tegishli talablar nomuvofiq bo'lgan mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan savdodan chaqirib olishni rag'batlantirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Aholi salomatligini ta'minlashga oid masalalar – doimiy e'tiborda

Qonunchilik palatasining 6-may kuni bo'lib o'tgan majlisida Sog'liqni saqlash vaziri A. Xudoyorovga "Aholi orasida onkologik kasalliklarning oldini olish va barvaqt aniqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovi yuborilgan edi.

Unda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimida aholi orasida onkologik kasalliklarni erta aniqlash, birlamchi va ikkilamchi profilaktika yumushlarini tashkil etish borasidagi ishlarni yaxshilash bo'yicha ko'rilayotgan choralar, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalaridagi mavjud vakant o'rinlarni malakali onkolog mutaxassislar bilan to'ldirish, Farg'ona, Xorazm, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahridagi hududlararo xospislar faoliyatini to'liq yo'lga qo'yish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish so'ralgandi.

Majlisda deputatlar mazkur parlament so'roviga yuborilgan javobni ko'rib chiqdi.

Unda keltirilishicha, respublikaning barcha 16 ta onkologik muassasasi to'la ta'mirdan chiqarilgan. Mavjud 5 ta nur terapiya uskunalari soni 51 taga yetkazilgan. Respublikada 100 ambulator, 650 o'rinni stasionar xizmatiga ega eng zamonaviy yangi onkologiya markazi binosi qurilib, ushbu maskanda aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatilmoqda.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida onkologik bemorlarga PET/KT tekshirishlarini davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Barcha onkologiya filiallarida immunogistikimyo laboratoriyalari tashkil etildi.

2021-yildan hududlarda 45 – 65 yoshli ayollar o'rtasida ko'krak bez saratonini erta aniqlash bo'yicha skrining boshlangan. Hozirgi kunda respublikada axborot tizimiga integratsiya qilingan 16 ta mobil mammograf va 16 ta stasionar mammograf kabinetlar aholiga malakali xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Farg'ona, Xorazm, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahridagi hududlararo xospislar faoliyatini to'liq yo'lga qo'yish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir.

Majlisda parlament so'roviga javobda ko'tarilgan masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumot taqdim etilgani aytilib, Sog'liqni saqlash vazirligining javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

IQTISODIYOTNI BARQARORLASHTIRISHNING MUHIM OMILI

Ayni chog'da yurtimizda xalqaro sertifikatga ega korxonalar soni talab darajasida emasligi aytiladi. Mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash uchun milliy brendlarni ko'paytirish, mavjudlarini xalqaro darajaga olib chiqish bo'yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilandi. Buning uchun milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash kompaniyasi tashkil qilinadi. Ushbu kompaniya xorijdan brend-menejer, dizayner, marketolog, piar-menejrlarni jalb qilib, milliy brendlarimizni jahon bozoriga olib chiqishga ko'maklashadi.

Mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalari muhokama qilinarikan, bu boradagi holat tuman va tarmoqlar kesimida tahlil etilib, kamchiliklar ko'rsatib o'tildi. Afsuski, yurtimizda milliy mahsulotlar bir joyda sotiladigan savdo markazlari yo'q. Shu bois endi hududlarda "Mall of Uzbekistan" majmualari barpo etiladi. Ulardagi savdo do'konlari tadbirkorlarga minimal narxda ijaraga beriladi. Bunday markazlar xaridorlarga keng tanlov imkonini berib, xorijiy turistlar uchun ham qulay savdo obyektini vazifasini o'taydi.



Hozirgi murakkab sharoitda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo'shilgan qiymatni ko'paytirish – eng asosiy masala. Shu maqsadda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun faktoring tizimi joriy qilinib, unga 100 million dollar mablag' ajratildi.

Gulnora MA'RUFOVA, Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi:

Bugungi kunda mahalliy sanoat O'zbekiston iqtisodiyotida drayver sohalardan biriga aylanmoqda. Xususan, to'qimachilik, mebelsozlik, qurilish materiallari, zargarlik, tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va charam-poyabzal tarmoqlari faol rivojlanmoqda. Bu sohalar nafaqat ichki bozorni to'ldirmoqda, balki yurtimiz eksport salohiyatini ham kengaytirmoqda.



Sohasida esa har bir hududda xalqaro sertifikatlarga ega korxonalarni ko'paytirish, ularga amaliy yordam berish muhim vazifa sifatida yuklatildi. Ichki bozorda mahalliy mahsulotlarni keng targ'ib qilish, milliy brendlarimizni jahon bozoriga olib chiqish maqsadida "Mall of Uzbekistan" kabi markazlarni tashkil etish tashabbusi – tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigidir. Mebelsozlik va zargarlik sohalaridagi salohiyatdan to'liq foydalanish maqsadida yakka tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, klasterlar tashkil etish va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Endi zargarlar ham yakka tadbirkor sifatida tilla buyumlar

savdosi bilan shug'ullanishi mumkin bo'ladi.

Bu sohada ham sanoat usuliga o'tish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rinishi lozim.

Xususan, zargarlikda ishlatiladigan uskunalar va ularning butlovchi qismlari import bo'lgan o'z qilinadi. Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlaridan oltinni bo'lib to'lash asosida sotib olish tartibi yana uch yilga uzaytiriladi. Nufuzli brendlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, ularning dizayni va qolipini olib kelish xarajatining 30 ming dollargacha qismi qoplab beriladi.

Bugungi iqtisodiy sharoitda barcha darajadagi davlat organlari va mahalliy hokimliklar belgilangan vazifalarni so'zsiz ijro etishi lozim. Sanoatni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, eksport kengayadi, xalqimiz farovonligi ortadi. Bu yo'nalishdagi har bir tashabbusni amaliy natijaga aylantirish barchamizning burchimizdir.

"Xalq so'zi".

MILLIY BRENDLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH – TARAQQIYOT MEZONI

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikka yaratilgan keng sharoitlar tufayli hududlarda kichik ishlab chiqarish korxonalarini soni ko'paymoqda. Buning natijasida odamlar ish bilan ta'minlanib, bozorbop mahsulotlar tayyorlanayotir. Ammo jahondagi murakkab vaziyat bu yo'nalishda yanada faol ishlashni, raqobatdosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni taqozo etmoqda. Sanoat tarmoqlari rahbarlari, mahalliy hokimliklar bu jarayonda imkoniyat izlashi, ichki xaziralarni ishga solib, taklif hamda tashabbus ko'rsatishi kerak.



Aks sado

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ayni shu masalalarga bevosita taalluqli bo'lgan – mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilishi ham bejiz emas. Zero, har bir davlat, avvalo, eng ko'p ish o'rinlari yaratadigan sohalarni himoyalash choralarini ko'rinishi lozim.

Raqaamlarga e'tibor bering, mamlakatimizda to'qimachilik, qurilish materiallari, mebelsozlik kabi sohalarda millionlarga yaqin aholi band. O'tgan to'rt oyda yurtimizda sanoat 6,3 foiz o'sib, 290 trln. so'mga yetgan. Eksport 20 foiz oshib, 6 mrd. 350 mln. dollarni tashkil etgan.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalarida kamchiliklar kuzatilyapti. O'zbekiston, to'qimachilikda 7 mingga yaqin tadbirkorlar 500 dan ziyod turdagi mahsulotlar chiqaryapti. Ayrimlari nufuzli brendlarga kiyim-kechak yetkazib beryapti. Biroq ko'pchilik sifatga ishlayotgani bilan buni ko'rsatib berolmayapti. Bugungi kunga qadar atigi 24 ta korxonada xalqaro sertifikat borligi ham achinarlidir.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni bilan nafaqat xalqaro sertifikat olish, balki korxonani bunga moslashtirish xarajati ham qoplab berilishi belgilangan. Yaratilayotgan bunday imkoniyatlardan tadbirkorlarni xabardor qilish, har bir

viloyatda xalqaro sertifikatga ega korxonalarni ko'paytirish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz ushbu yo'nalishda ham muhim tashabbusni ilgari surdi. Endilikda mamlakatimizda Milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash kompaniyasi tashkil qilindi. Unga xorijdan brend-menejer, dizayner, marketologlar jalb etilib, milliy brendlarimizni jahon bozoriga olib chiqishga ko'maklashiladi. Xalqaro sertifikat bor, raqobatbardosh mahsulotlarga sifat belgisi berilib, dunyoda keng targ'ib etiladi.

Yig'ilishda yana bir muhim muammo – milliy mahsulotlar bir joyda sotiladigan savdo markazlari yo'qligi tanqid qilindi. Shu bois endi hududlarda "Mall of Uzbekistan" majmualari barpo etiladi. Ulardagi savdo do'konlari tadbirkorlarga minimal narxda ijaraga beriladi. Bunday markazlar xaridorlarga keng tanlov imkonini berib, xorijiy turistlarga ham qulay bo'ladi.

Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo'shilgan qiymatni ko'paytirish ham jiddiy masala. Shundan kelib chiqib tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun faktoring tizimi joriy qilindi, bunga 100 mln. dollar ajratildi. Buning mantiqiy davomi sifatida endi to'qimachilik korxonalarini kalava ipni faktoring asosida soddalashtirish tartibida sotib olishi mumkin bo'ladi.

Zargarlik yurtimizda azaldan qadrlangan va bu yo'nalishda ham

tadbirkorlarga ko'plab qulayliklar yaratib berilmoqda. Bugun bu tarmoqni iqtisodiyotning qo'shimcha drayveri deiyish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra o'tgan yili ushbu tarmoqda ishlab chiqarish 200 mln. dollardan oshgan, eksport 17 foiz o'sib, 92 mln. dollarga yetgan. Ammo bu yilga 100 tonnadan ziyod oltin qazib olinadigan O'zbekistonda imkoniyatlarining o'ndan biri ham emas. Shu bois sohada qo'shimcha yengilliklar belgilandi. Endi zargarlar ham yakka tadbirkor sifatida tilla buyumlari savdosi bilan shug'ullanishi mumkin bo'ladi. Chet eldan mutaxassis olib kelish xarajatining 2,5 ming dollargacha qismi kamida 5 nafar shogird chiqarish sharti bilan qoplab beriladi.

E'tiborlisi, sohada sanoat usuliga o'tilib, milliy brendlar qo'llab-quvvatlanadi. Xususan, zargarlikda ishlatiladigan uskuna va butlovchi qismlar import bo'lgan o'z qilinadigan bo'ladi.

Qayd etilganidek, Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlaridan oltinni bo'lib to'lash asosida sotib olish tartibi yana uch yilga uzaytiriladi. Nufuzli brendlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, ularning dizayni va qolipini olib kelish xarajatining 30 ming dollargacha qismi qoplab beriladi.

Umuman, videoselektor yig'ilishida ko'tarilgan barcha yo'nalishdagi masalalar va mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor taramoqini yanada rivojlantirish bilan birga, aholi bandligi hamda farovonligini ta'minlashga qaratilgan bilan yanada ahamiyatlidir. Zero, muammolarni o'zimiz hal etmasak, birov chetdan kelib hal qilib barmaydi.

Shunday ekan biz, deputatlar ham bu masalalarga e'tiborni yanada kuchaytirib, muammolarni tadbirkorlar bilan birgalikda bartaraf etish choralarini ko'ramiz. Bu yurtimiz ravnaqi uchun g'oyatda muhimdir.

Muqaddasxon AHMEDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

Taqdimot Islohotlar samarasi e'tirofi

27-may kuni Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning Aksilkorupsiya tarmog'i Istanbul harakatlar rejasini doirasidagi 5-raund bazaviy hisoboti va O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi islohotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihasi taqdimotida ishtirok etdi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, IHTT va xalqaro tashkilotlar hamkorligida uyushtirildi.

Ta'kidlanganidek, IHTT tomonidan ishlab chiqilgan Istanbul harakatlar rejasini hozirgi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda muhim yo'nalish vazifasini o'tamoqda. U nafaqat erishilgan yutuqlarni baholash, balki e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan ustuvor sohalarni ham aniqlashda muhim omil bo'layotir.

Xususan, 2024-yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan 5-bosqich monitoringi va baholash tizimi korrupsiyaga qarshi siyosat, manfaatlar to'qnashuvi va mulk deklaratsiyasi, xabar beruvchini himoya qilish, biznesning yaxlitligi, davlat xaridlarida halollik, sud hokimiyatining va prokuraturaning mustaqilligi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan muassasalar, korrupsiya jinoyatlari uchun ta'qib qilish kabi to'g'riqizta samaradorlik sohasini o'z ichiga oladi.

Taqdimot davomida O'zbekistondagi so'nggi islohotlar ijroiyi deya e'tirof etilgan va mamlakatimiz mintaqada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha eng yuqori baholardan birini olgani aytiladi. Xususan, fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kuchaytirish, davlat xaridlarida va xususiy sektorda halollikni ta'minlash borasidagi ko'rsatkichlar yaxshilanayotgani alohida ta'kidlandi.

Bularning barchasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi, shuningdek, mamlakat parlamenti va ijro hokimiyati idoralarining sa'y-harakatlari samarasi hamda xalqaro hamkorlar ko'magining amaliy natijasi sifatida e'tirof qilindi.

Tadbir doirasida IHTT tomonidan taqdim etilgan tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi" keng muhokama qilinib, uni amalga oshirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

Mulohaza BILIMLI AVLOD – ERTAMIZ EGALARI

Davlatimiz rahbari yaqinda maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar mavjud muammolarga alohida to'xtalib o'tildi.



Jumladan, ta'lim dasturlari eng ilg'or mamlakatlar tajribasiga moslashtirilib, darsliklar yangilangani, maktablarga zamonaviy jihozlar olib berilgani bilan tizimdagi muallimlarning yangi metodikalarni o'zlashtirishi, ta'lim sifatini ta'minlashi qoniqarli darajada emasligi tanqid qilindi. Buni birgina toifa berish tizimi misolida ko'rish mumkin. O'tgan yili 341 ming nafar o'qituvchi yangi tizim asosida toifaga topshirgan bo'lsa, shundan 102 ming nafar (30 foizga yaqini) imtihondan o'ta olmagan qayd etildi.

Albatta, oliy ta'lim dargohiga yo'l maktabgacha va maktab ta'limi orqali o'tadi. Aniqrog'i, bo'lajak o'qituvchilari shifokorning, muhandisu me'morning zuvalasi shu tizimda pishiydi. Shu ma'noda, Surxondaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayni kunlarda tizimda 985 ta ta'lim muassasasi faoliyat yuritib, 967 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 540 ming 801 nafar o'quvchiga 48 509 nafar pedagog ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

O'qituvchilikde sharaflil kasb egasini tayyorlovchi barcha pedagogika oliygo'hlari faoliyati tubdan o'zgarishi aytiladi va buni Prezidentimiz Termiz pedagogika instituti misolida tushuntirib berdi. Bu oliygo'ha Yangi O'zbekiston universitetidagi kabi xalqaro boshqaruv tizimi ta'biq etiladi. "TOP" xorijiy oliygo'hlarni tajribasi asosida fakultetlar o'rnida aniq, tabiiy, ijtimoiy, filologiya, amaliy fanlar, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bo'yicha 6 ta oliy maktab tashkil qilinadi.

Sohada olib borilgan islohotlar natijasini o'laroq, bundan olti yil avval asosiy fan olimpiadasining yakuniy bosqichi bo'yicha Surxondaryo viloyati respublikamiz umumta'lim maktablari fanlar olimpiadasida 14 o'rinni egallagan bo'lsa, o'tgan yili 7-o'ringa chiqdi, joriy yilda esa 4-o'rinni qo'lga kiritdi.

Oliygo'hdagi fanlar soni ham maqbulashtirilib, 20 tadan 15 taga, ta'lim yo'nalishlari 31 tadan 17 taga tushirildi, o'quv yuklamasi 20 foizga qisqardi. Termiz shahri va tumanidagi 47 ta maktab oliygo'hnin amaliyot bazasiga aylantirildi. 3 ta ixtisoslashtirilgan hamda yangi baholash tizimiga o'tgan 12 ta maktab esa metodik baza bo'lib, oliygo'hlarni zamonaviy laboratoriya bilan ta'minlaydi.

Bular – bir institutda yaqin kelajakda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar. Mazkur tizim barcha pedagogika oliygo'hlari joriy etiladi.

Diilar SUVONOVA,
Surxondaryo viloyatidagi
Xalq qabulxonasi mudiri,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

MUAMMOLAR YECHIMI TAHLIL QILINDI

Oliy Majlis Senatining Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya majlisi bo'lib o'tdi.

Komissiya yig'ilishi

Unda komissiya tomonidan mahalliy Kengashlar faoliyatiga amaliy-uslubiy jihatdan ko'rsatilayotgan ko'mak va amalga oshirilgan chora-tadbirlar atrofiga muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, mahalliy Kengashlar qarorlari loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uslubiyati ishlab chiqildi. Shuningdek, Kengash so'rovi va tekshiruv institutlarining huquqiy

asoslari mustahkamlandi, Kengashlar huzurida Ekspert guruhlari hamda Yoshlar maslahat guruhlari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy choralari ko'rdi.

Komissiyaning shu paytga qadar olib borgan faoliyati davomida "mahalla – Kengash – Senat" tamoyili asosida fuqarolarning minglab muammolari o'rganilib, ularni hal etish bo'yicha tizimiy

ishlar olib borildi. Hududlarni rivojlantirishda mahalliy Kengashlarning roli yanada oshirildi.

Shu bilan birga, mahalliy Kengashlar faoliyatini namunaviy tashkil etish mezonlari ishlab chiqilib, har bir hududda bittadan tuman (shahar) Kengashi faoliyatini talon sifatida joriy qilish bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Majlisda O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihalari ishlab chiqilgani ma'lum qilindi. Ushbu konseptual

hujjatlar mahalliy Kengashlar mustaqilligini ta'minlash va ularning institutsional salohiyatini oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, tadbirda mahalliy Kengashlar faoliyatini raqamlashtirish, "E-Kengash" elektron platformasini rivojlantirish va uni tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilish borasida amalga oshirilgan ishlarga ham e'tibor qaratildi.

Majlis yakuni bo'yicha komissiyaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston – Italiya:

IZCHIL RIVOJLANISHGA QARATILGAN UZOQ MUDDATLI STRATEGIK HAMKORLIK

O'zbekiston bilan Italiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar ham izchil rivoj topmoqda. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2017-yildagi 172,2 mln. dollardan 2024-yilda qariyb 438 mln. dollarga yetdi.

Bunga mamlakatlar o'rtasida amalda bo'lgan eng qulay savdo rejimi, shuningdek, mamlakatimiz 2021-yilda benefitsiariga aylangan Yevropa Ittifoqining "GSP+" imtiyozli tizimi ko'p jihatdan yordam bermog'ga. 1992-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Savdo, iqtisodiyot va sanoat hamkorligi va eksport kreditlari masalalari bo'yicha O'zbekiston – Italiya hukumatlararo ishchi guruhi ham ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va sheriklikni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil iyun oyida Italiyaga tashrifi munosabati bilan Rimda ikki tomonning 200 dan ortiq tadbirkor va kompaniyalari vakillari ishtirokida O'zbekiston – Italiya biznes forumi bo'lib o'tdi. Uning yakunlari bo'yicha jami 9,2 mrd. yevroga teng 38 ta investitsiyaviy bitim, 13 ta texnologik hamkorlik to'g'risidagi bitim hamda 13 ta eksport shartnomasi imzolandi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif chog'ida Italiyadagi yirik kompaniya va sanoat

birlashmalari rahbarlari bilan ham uchrashuv o'tkazdi. Muloqot Milan shahrida davra suhbatii formatida bo'lib o'tdi.

2023-yilning 7-8-sentyabr kunlari Italiya qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat suvereniteti va o'rmon xo'jaligi vaziri Franchesko Lollobrigida hamda Italiya tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri o'rinbosari Edmondo Chiriyelli FAO shafeligida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. 2024-yil oktyabr oyida esa Rimda O'zbekiston qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari Alisher Shukurov Italiya qishloq xo'jaligi vaziri Franchesko Lollobrigida bilan uchrashdi.

O'zbekiston tadbirkorlari Italiyada o'tkazib kelinayotgan "Tuttofood", "Macrut", "Simac Tanning Tech", "TTG Rimini" va "Artigiano in Fiera" kabi xalqaro ko'rgazmalarda muntazam ishtirok etyapti.

O'zbekistonda Italiya investitsiyasi ishtirokidagi 55 ta korxonada (24 tasi 100 foiz xorijiy sarmoya asosida) va faoliyat yuritadi. Italiyaning 9 ta kompaniyasi, shuningdek, "Italiya – O'zbekiston" Savdo-sanoat palatasi vakolatxonalarini O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligidan akkreditatsiyadan o'tgan. Italiya investitsiya hamda texnologiyalari ishtirokida mamlakatimizda gaz taqsimlash tizimlarini modernizatsiya va

rekonstruksiya qilish, hashamatli temir yo'l kruizlarini yo'lga qo'yish, Jizzax viloyatida za'faron yetishtirish, chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilayotir.

2023-yil mart oyidan boshlab Toshkent, Milan va Rim shaharlarida o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgani ham ishlabarmonlik aloqalarini kengaytirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Madaniy-gumanitar hamkorlik O'zbekiston – Italiya munosabatlarining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Xususan, 1998-yil sentyabr oyida mamlakatimizda "O'zbekiston – Italiya" do'stlik jamiyati tashkil etildi.

O'zbekistonda Turin va Piza universitetlarining fillallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda Buxoroda Luidji Vanvitelli nomidagi Kampaniya universitetining filiali ochildi. 2024-yil sentyabr oyida Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida O'zbekistonning 45 va Italiyaning 23 ta oliy o'quv yurtlari rahbarlari ishtirokida "O'zbekiston – Italiya" birinchi rektorlar forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Joriy yil 25-aprel kuni Samarqand shahrida ikki davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari ishtirokida davra suhbatii bo'lib o'tdi va tadbir doirasida fan va ta'lim sohasiga oid 6 ta hujjat imzolandi.

2024-yil Italiyada O'zbekistonga bag'ishlangan ko'plab madaniy tadbirlar o'tkazilgani bilan yodda qoldi. "O'zbekiston: sahradagi avangard" ko'rgazmasi 2024-yilning 15-aprelidan 30-iyunigacha qadar Florensiyada va 2024-yilning 16-aprelidan 30-iyunigacha qadar Venetsiyadagi "Ka Foskari" universitetida bo'lib o'tdi.

Shuningdek, 4 – 9-dekabr kunlari Rim, Milan va Viarejio shaharlarida O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi.

Italiya vakillari Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqasi festivalida muntazam ishtirok etib kelmoqda. E'tiborlisi, Italiya san'atkorlari bir necha bor ushbu nufuzli festivalning Gran-pri va maxsus sovrinlarini qo'lga kiritgan.

O'z navbatida, 2018-yilda Rimda bo'lib o'tgan "Aziatika" XIX xalqaro Osiyo filmlari kinofestivalida "Tohir va Zuhra" filmi jahon kinosi rivojiga, umiminsoniy qadriyatlarini targ'ib etishga qo'shgan hisssasi uchun maxsus diplom bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Milliy pavilyoni ketmaket beshinchi yildirki, Venetsiyada bo'lib o'tgan Xalqaro arxitektura va san'at biyennalesining Italiyalik va xorijlik mehmonlari orasida katta muvaffaqiyatga erishyapti. Shu yil 8-may kuni 19-Venetsiya xalqaro arxitektura biyennalesida O'zbekiston

"Dunyo" AA.

Mebelsozlik faoliyatini boshlash, kengaytirish istagidagi yosh tadbirkorlarga 7 yilga 5 mlrd. so'mgacha 18 foizli kredit ajratiladi.

YO'SHLIK FASLINING OLTINGA TENG DAQIQALARI

HAR BIRI NOYOB VA ISTE'DODLI

Davlatimiz rahbari hayotidagi muhim bosqichni yakunlab, zamonaviy universitetlar, kasb-hunar maktablari va texnikumlar ostonasida turgan bitiruvchilarga tabrik yo'llagan qoraqalpog'istonlik yoshlarga ham cheksiz quvonch baxsh etdi. Chindan-da, bugungi kunda yoshlar uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Har biri noyob va iste'dodli bo'lgan yigit-qizlarimizning katta hayot yo'lida o'z yo'lini topishi biz uchun ham muhimdir.



Mas'uliyatli, intizomli va bilimli 46 nafar bitiruvchi hozirdanoq talaba bo'lish baxtiga erishib, ularning 15 tasi nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasasiga muddatidan oldin qabul qilinganidan faxrlanamiz. Maktab bitiruvchilarining erishayotgan bunday yutuqlari va muddatidan oldin oliy o'quv yurtning talabasiga aylanishi xalq ta'limi tizimidagi fidoyi o'qituvchilar mehnatining samarasidir. Bu muvaffaqiyatlar yoshlarni muhim kashfiyotlar qilishga, yangi natijalarga erishishga va asosiysi, yangi O'zbekistonning umidi va tayanchi bo'lishga undaydi.

Gulistan KOJABAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
maktabgacha va maktab ta'limi vaziri.

FARZANDLARIMIZ TINCH VA FAROVON MAMLAKATDA KAMOL TOPAYOTGANIDAN BAXTIYORMIZ

Yurtimizda yosh avlod ta'limiga qaratilgan e'tibor, yaratilgan sharoit va imkoniyatlar har bir ota-onaning qalbidagi katta minnatdorlik tuyg'usini uyg'otadi. Yoshlarning salohiyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

Ayonki, insonning kelajakda yetuk kadr bo'lib shakllanishida maktabda o'lgan boshlang'ich ta'limining ahamiyati katta. Shuning uchun ham ota-onalar farzandini maktabda tahsil olish davrida muntazam nazorat qilishlari lozim.

Shu ma'noda, o'g'lim Dilshodbek Rajabovning kelajagidan ko'nglim to'q. U Hazorasp tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 11-sinfini "a'lo" baholar bilan tugatdi. Farzandimiz maktabda fizika fanini chuqur o'zlashtirgani uchun respublika va xalqaro olimpiadalarda g'olib bo'lib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qildi.

Umuman, dilbandimni ilm olish yo'lida qo'llab-quvvatlagan ustozlari, zamonaviy ta'lim resurslari, olimpiada va tanlovlar uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar bularning barchasi yurtimizda inson kapitaliga qaratilgan e'tiborning yorqin ifodasidir.

Biz ota-onalar farzandlarimiz tinch va farovon mamlakatda kamol topayotganidan baxtiyormiz.

Hasanboy YUSUPOV,
Hazorasp tumani

ORZULAR SARI ILK QADAM MAKTABDA QO'YILADI

Prezidentimizning "Sizlardek o'z kuchiga ishongan, qat'iyyatli yoshlardan qadrdon maktabingiz, aziz ustozlaringiz va ota-onalaringiz, butun xalqimiz faqat ezgu ishlar va yorqin natijalar kutadi", degan so'zlari bitiruvchi sifatida qalbimni g'urur-iftixorga to'ldirdi.

Gap shundaki, men Dang'ara tumanidagi 1-maktab-internatni muvaffaqiyatli tamomladim. O'tam oddiy usta, onam mahalladagi oliyviy poliklinikada farrosh bo'lib ishlasa-da, uch farzandning "a'lo" baholarga o'qishini hamisha qo'llab-quvvatlab kelgan.

Bolaligimdan matematika va fizika fanlariga qiziqardim. Bunga qo'shimcha ingliz tilini qunt bilan o'rganishim uchun barcha sharoitni yaratib berishdi. Fizika fani o'qituvchimi Shavkatjon Mamatqulov ko'magida so'nggi uch yilda fan olimpiadasining Farg'ona viloyati bosqichida faxrli birinchi o'rinni egalladim. 11-sinfda fizika fani bo'yicha fan olimpiadasining yakuniy respublika bosqichida g'olib bo'ldim.

Rossiya va Qozog'istonda o'tkazilgan xalqaro olimpiadalarda qatnashib, o'zbek yoshlarining dunyoda hech kimdan kam emasligini namoyon etdim. Shuningdek, joriy yil 5 - 10-may kunlari Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan "APHO" - Osiyo fizika olimpiadasida bronza medaliga

sazovor bo'ldim. Bilasizmi, O'zbekiston tarixida "APHO" olimpiadasida bunday yuqori natija hali bo'lmaganligini eshitib behad quvondim.

Endi shu yil iyun oyida Fransiyada bo'lib o'tadigan nufuzli xalqaro fizika olimpiadasida ishtirok etaman.

Shu yutuqlarim tufayli muddatidan oldin oliy ta'lim muassasasi talabaligiga qabul qilindim.

Fursatdan foydalanib, ilm-fan sohasida hamisha ilhomlantirgan maktab-internat direktori Sohiba Mamajonova, sinf rahbarim Azizjon Azimov va boshqa ustozlarimga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Nozimjon SHAVKATJONOV,
Dang'ara tumanidagi 1-maktab-internat bitiruvchisi.



IMKONIYATLAR QO'NG'IROG'I

"So'nggi qo'ng'iroq"... Bu ikki so'z shunchaki oddiy tadbir nomi, qo'ng'iroq jarangi emas, balki vaqt degan oliy hakamning "Endi navbat senga, o'z yo'lingni o'zing tanla va olg'a intil" degan jarangdor ovozidir.

Shu ma'noda ta'kidlash kerakki, "So'nggi qo'ng'iroq" tantanalarida Prezidentimizning biz, bitiruvchi yoshlarga yo'llagan tabrigidagi "Aminman, sizlarning yangi g'oya va tashabbuslaringiz, turli sohalaridagi yutuqlaringiz Yangi O'zbekistonni yanada qudratli etadigan moddiy va ma'naviy asoslarni barpo etishga beqiyos hissa bo'lib qo'shildi."

Sizlardek o'z kuchiga ishongan, qat'iyyatli yoshlardan qadrdon maktabingiz, aziz ustozlaringiz va ota-onalaringiz, butun xalqimiz faqat ezgu ishlar va yorqin natijalar kutadi.

Ana shunday yuksak ishonchga doimo munosib bo'ling, degan so'zlarini eshitgan har bir yosh o'z qalbidagi, yuragidagi katta va sharafli mas'uliyatni his etdi, desam, mubolag'a emas.

Bugun tengdoshlarimning dilida bitta tuyg'u bor, u ham bo'lsa, Vatani oldidagi fuqarolik, farzandlik burchi mas'uliyatidir. Ya'ni "so'nggi qo'ng'iroq" Mana, endi senga ham yurt ravnaqi, xalq baxtu saodati yo'lida siddiqdildan xizmat qilish navbati keldi" degan xitob hamdir.

Demak, "so'nggi qo'ng'iroq" yakun emas, aksincha, kelajak sari katta yo'lning boshlanishidir. Hayotning bu muhim qo'ng'irog'i seni ruhlantiradi, orzularingni jo'sh urdiradi. Maktabni bitirgan borki, albatta, barchasi maqsadlariga erishish uchun dadil qadam tashlaydi: ko'pchilik turli sohalar bo'yicha o'qiy boshlaydi, ming-minglab yoshlar esa ixtisoslashtirilgan kasb-hunar hamda bevosita umumta'lim maktablarida o'quvchiligidayoq o'rgangan kasb-hunari bo'yicha ishga kiradi. Yangi jo'shgan hayot boshlanadi...

O'ylaymanki, yuqoridagi fikrlarimizga elimizning sevimli shoiri O'tkir Rahmatning "So'nggi qo'ng'iroqdan ko'zlaringda nam..." she'ridagi ushbu satrlar ham munosib xulosa bo'ladi:

Voyaga yetkazgan maskanga ta'zim
Har qancha qilmaki, bilgil, bo'lar oz.
Bu hayot aslida ulug' muallim,
Otay onangdir eng katta ustoz...
Azizim, umming gulgun bog'ida
Turfa gullar ochsa qismat qo'zal, boq,
Yashash va yaratish ishtiyog'ida
Shijoat, shahd tilar so'nggi qo'ng'iroq!

Samiya ABDURASHIDOVA,
Mirzaobod tumanidagi 13-maktab bitiruvchisi.



Javohir Sindarov – nufuzli turnir chempioni

Shvetsiyaning Malmyo shahrida o'tkazilgan yirik xalqaro shaxmat turniri o'z yakuniga yetdi. Aylana tizimida bo'lib o'tgan mazkur musobaqada O'zbekiston sharafini grossmeyster Javohir Sindarov muvaffaqiyatli himoya qildi.

Sport

Mamlakatimizning ikkinchi raqamli shaxmatchisi yetti nafar kuchli raqiblari bilan sovrinni o'rinar uchun kurash olib bordi. Kuni kecha bo'lib o'tgan 7-tur bahsida hamyurtimiz qora donalarda ukrainalik shaxmat afsonasi Vasiliy Ivanchukka qarshi


bahs olib bordi va o'yinni durang bilan yakunladi.

Ushbu natija bilan Javohirning ochkolar soni 4,5 taga yetdi. Parallel tarzda, ikkinchi o'rinda borayotgan turkiyalik Yagiz Erdogmus ham o'z raqibi, niderlandiyalik Ervin L'Ami bilan durang o'ynadi. Pirovardida turnirda

Javohir Sindarovni ochkolar bo'yicha quvib yetishga hech bir raqibda imkon qolmadi.

Shunday qilib, Javohir Sindarov Malmyo'da o'tayotgan nufuzli xalqaro turnirda chempionlikni qo'lga kiritdi. Bu natija yosh grossmeysterimiz uchun navbatdagi muhim yutuq bo'lib, O'zbekiston shaxmat maktabining yuksak salohiyatini yana bir bor isbotladi.

"Xalq so'zi".



Javzo yomg'iri

Ob-havodagi o'zgarishlardan ilg'agan bo'lsangiz kerak, yurtimizga allaqachon javzo kirdi. U shamsiy yil taqvimiga ko'ra uchinchi oy bo'lib, 22-may – 21-iyun kunlariga to'g'ri keladi.

Iqlim

Odatda, javzo o'zgaruvchan tabiati bilan doxil bo'ladi. Garchi bu paytda harorat ko'tarilib, yoz havosiga tortib ketgan bo'lsa-da, javzo kirishi nisbatan o'tib hurvdan tushadi. Salqin epkinlar esa boshlaydi. Hatto bu jadal yog'ingarchilik olib kelishi ham ko'p kuzatilgan.

Hisobdonlarning aytishicha, javzoda kuchli yomg'ir, jalalar bo'lishi odatiy hol. Ammo yomg'irning kutilmaganda yog'ishidan, ayniqsa, chorvadorlar ko'p aziyat chekishadi. Ya'ni davomli yog'ingarchilik va haroratning nisbatan pasayishi endi qirg'indan chiqqan qo'y-qo'zilarini nobud qilishi, jaladan hosil bo'lgan sellar chorva mollarinii oqizib ketish holatlari uchrab turadi. Xalqimizning "Javzoda javrab o'lgan ho'kizim" iborasidan esa bu yomg'irlarning naqadar katta talafot keltirishini anglash qiyin emas.

Bu yilgi javzo ham yog'ingarchilik bilan keldi. So'nggi kunlarda yurtimizning turli hududlarida

"Xalq so'zi".

Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi jamoasi fond Boshqaruvi kengashi raisi Zokirjon Mashrabovga umr yo'ldoshi
Mo'tabarxon MASHRABOVning vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor qiladi.

REKLAMA

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

quyidagi kafedra bo'yicha lavozimga tanlov e'lon qiladi:

- Maxsus fortepiano kafedrasida: dotsent – 2 o'rin.

Tanlovda ishtirok etish uchun da'vogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- rektor nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarining nusxalari;
- o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari ro'yxati;
- mutaxassislik bo'yicha oxirgi uch o'quv yilida malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma va sertifikatlar nusxasi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida O'zbekiston davlat konservatoriyasining xodimlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 1-uy.

«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI» AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISH TO'G'IRISIDA

Jamiyatning nomi: "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati.

Joylashgan joyi: 100084, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 101-uy.

Elektron pochta manzillari: info@nbu.uz, webmaster@nbu.uz.

Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi va manzili: 2025-yil 17-iyun, soat 11:00. Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 101-uy.

Aksiyadorlarning reestri shakllantiriladigan sana: 2025-yil 11-iyun.

Kun tartibiga kiritilgan masalalar:

- "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;
- Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reqlamentini tasdiqlash;
- Aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash.

Bu yil maktabni 11,5 mingdan ziyod yoshlar oltin, 2 mingdan ko'pi kumush medal bilan tamomladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilish hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchesi muharrir N. Ostonoev.
Muhassib Sh. Mashrabov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.45 Topshirildi – 02.00 **1 2 3 4 5 6**